



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

**TA'LIM TASHKILOTLARIDA MILLIY QADRIYAT URF-ODAT
AN'ANALARNI SHAKLLANTIRISH IJTIMOIIY PEDAGOGIK
ZARURIYAT SIFATIDA**

Husenova Aziza Sharipovna

Sabirova Boljon Usmon qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa

doktori (PhD)

aziza husenova@buxdpi.uz

Annotatsiya

Ushbu tezisda ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning kasb tanlashida va ta'lim-tarbiyasida milliy qadriyat va umuminsoniy qadriyatlarning urf-odat va an'analarni shakllantirish zaruriyati haqida to'liq bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, e'tiqod, na'muna, milliy ong, milliy g'urur, kasb, san'at, milliy qadriyatlar.

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy islohatlar ta'lim tizimini tubdan yangilash, uni zamon talablari darajasiga ko'tarishni ustuvor vazifa etib belgiladi. Shaxsning ma'naviy-axloqiy madaniyatining shakllantirishga qo'yiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari dinamik xarakterga ega bo'lib, ijtimoiytuzum taraqqiyoti bilan bog'liqdir.

Bugungi globallasuv jarayonida dunyoning har qarich yerida inson ongi va tafakkuri uchun jiddiy kurash ketayotgani ayni haqiqatdir. Birda yovuz, birda madaniy ko'rinishdagi bu kurash har birimizdan atrofga teran nazar tashlash, e'tiborli bo'lish, jahonda kechayotgan turfa jarayonlarni aql va tafakkur bilan sarhisob etishga undaydi. Prezidentimizning 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 25- dekabrda O'zbekiston Yoshlari forumida hamda 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasida hamda joriy yilning 19-yanvar kuni Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videosektor yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati hamda vazirliklar, qator davlat va jamoat tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashga chorlaydi. Yurtboshimizning "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni, ruhi ma'naviyatdir", degan so'zlari mohiyatidagi uyg'onish nafasi ufurib turadi. Demak, yuksak ma'naviyat bilan jamiyat hayotining tanasi bo'lgan iqtisodiyot vujudiga jon, ruh kiradi, unga tiriklik, tengsiz yaratuvchi qudrat baxsh etiladi.

Ma'naviyat- kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy, tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma'naviyat mafkura tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlari bilan bog'liq tushunchalardir. Demak Ma'naviyat –insonning ongi, aqliy qobiliyatini, ruhiy kechinmalarini yaxshiliklarga, ezgu niyatlarga to'la qalbini ifodalovchi ko'p qirrali tushunchadir. Ma'naviyat va tarbiya tushunchalari bir-biriga uzviy bog'liqdir. Bolalar ulg'ayib borgan sari tevarak atrofidagi katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlariga taboro tanqidiy nazar bilan qaraydigan bo'ladi. Shu yoshdagi bolalar o'z nuqtai nazarlaridan taqlid qilishga arzigulik deb bilgan kishilarni o'zlari uchun na'muna deb biladilar va ularga e'tiqod qo'yadilar. Ma'lumki, tarbiya vositasi bo'lgan namuna mohiyat e'tibori bilan e'tiqodga yaqin turadi.

E'tiqod tushunchasi o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda muhimo'rintutadi. Bunda tarbiyachi o'quvchilarning shaxsiy tajribasiga tayanib ularning ongiga, hissiyotlariga ta'sir qiladi. Shu yo'l bilan yoshlarda ijobiy axloqiy sifatlar tarkibtopaboradi hamda mustahkamlanadi ulardagi salbiy hulq odatlari yo'qotiladi. O'quvchilarda e'tiqod hosil qilish jarayonida etikaga oid tushunchalar ham tarkibtopib boradi. O'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga tayyorlash faqat hayotiyko'nikmava malakalar hosil qilishdan iborat bo'lib qolmay, ayni chog'da yoshlardakelajakjamiyat kishisi uchun zarur bo'lgan axloqiy sifatlarni tarbiyalash hamdir.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tushunchalari faqat dars jarayonida emas, balki kundalik turmushda ham sinovlardan o'tib shakllana boradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida shunday sharoit yaratmoq kerakki, o'quvchilar sabot-matonat, qunt tashabbuskorlik, chidam ko'rsata oladigan ishlarni jamiyat va vatan uchun zarurligini qalbdan tushunadigan bo'lsin. O'quvchilarga beriladigan bilimlar majmui shubhasiz juda katta tarbiyaviy kuchga egadir. O'quvchilarda chinakam ilmiy dunyoqarash asolarini yaratishda to'g'ri hukm yuritish qobiliyatini tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy sifatlarga tayanib ish ko'riladi.

Milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishni bugungi kundagi ijtimoiy asoslari quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi. - "Avesto" - Urxun Enasoy bitiklari; - Ilk uyg'onish davri; - Jadidchilar harakati davri; - Sovet davridagi umumiy yondashuvlar; - Mustaqillik davri. Ma'lumki, XX asrning oxirigi 10 yilligi Vatanimizga nihoyatda katta ma'naviy-ma'rifiy, moddiy, iqtisodiy va ijtimoiy boyliklarni berdi. Respublikamizda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy soha bo'yicha zamon talablari asosida tub islohatlar qilish imkoniyati yaratilgani bois, undan oqilona foydalanishimiz lozim. Xuddi shuningdek, ushbu islohatlar mamlakatning kelajagini yaratuvchisi bo'lgan yosh avlodni shakllantirish bo'yicha mas'ul tizim – xalq ta'limida ham islohatlar o'tkazilib, davlat miqiyosida maxsus dasturiy hujjatlar qabul qilindi. Ayniqsa, barkamol avlod tarbiyasiga berilgan e'tibor mustaqil respublikamiz taraqqiyotig amunosib hissa qo'shadigan yosh avlodni tarbiyalashni bosh muammo qilib qo'ydi. Shuning bilan birga barkamol avlodni tarbiyalash birdaniga kun tartibiga qo'yilgan bosh masala emas, balki u asrlar davomida ajdodlarimiz orzusi bo'lib kelgan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga daxldor bo'lgan yurtlarning donishmandlari – eng mo'tabar ziyolilar, hukmdorlar hisoblanganlar. Ularning orasida O'zbekiston deb atalmish Ona zaminimizda yashagan ma'rifatparvar buyuk ajdodlarimizning salmoqli o'rni bor. Shu sababli ham barkamol avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalasi bo'yicha tarixdan juda ko'p dalillar keltirish mumkin.

Milliy qadriyatlar – muayyan bir millat, elat va xalq hayoti, turmush tarzi, ularning o'tmishi, kelajagi va yashayotgan ijtimoiy muhiti bilan bog'liqdir deb falsafa bo'yicha qomusiy lug'atda ta'rif berib o'tilgan. Bu chiqarilgan xulosa milliy qadriyatlarni o'rganishda o'quvchilarda milliy g'oya, milliy ong, milliy g'urur



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

tushunchalari ketma-ketligini shakllantirish lozimligini ko'rsatdi. Chunki milliy g'ururi bo'lmagan inson hech qachon Vatan boyliklari qadriga yetmaydi, uni asrashni xayoliga ham keltirmaydi, ya'ni vatanparvar, fidoyi inson bo'lib yetisha olmaydi. Kishida milliy ong bo'lmasa, u hech qachon o'zligini namoyon eta olmaydi. U hech qachon millat uchun qayg'urib yashamaydi, millat taqdirini o'ylamaydi. Bu borada«...Ta'lim – tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlangan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi».

Shuning uchun ham biz tadqiqotimizda shunday xulosalarga keldik. Milliy qadriyat, an'ana va urf-odatlariga hos bo'lgan barcha tushunchalarni bog'liqlikda o'rganib yuqorida qayd etilgan ketma-ketlikni ta'minlovchi bosqichlarda tushunchalarni shakllantirish yo'llarini izlab chiqdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston ijodkor ziyolilar vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasidan. "Xalq so'zi" 2017 yil, 4- avgust
2. Shavkat Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagannutqi 15 iyun 2017 y.
3. Mirzaeva, M. X. (2018). Milliy qadriyatlar va ularning ta'lim tizimiga ta'siri. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
4. Tashpulatov, Z. A. (2022). Milliy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
5. Xolov, J. (2021). Urf-odatlar va an'analar asosida ta'lim jarayonini rivojlantirish. Urganch: Xorazm davlat universiteti nashriyoti.
6. Qodirov, Z. (2017). Milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston yoshlar ittifoqi nashriyoti.